

PETR I DAVRIDA ROSSIYANING XIVA XONLIGIGA BO'LGAN QIZIQISHI

Erkinboyev Fozilbek Zokirjon o'g'li

Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti,
tarix qo'shimcha davlat huquqi yo'nalishi 4- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15161012>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Petr I davrida Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga bo'lgan qiziqishi tahlil qilinadi. Rossiyaning bu hududga e'tibor qaratishining asosiy sabablarini iqtisodiy manfaatlar, savdo yo'llarini nazorat qilish va geosiyosiy strategiya bilan bog'lash mumkin. Xiva xonligi Hindiston va Eron bozorlariga olib boruvchi muhim karvon yo'llari ustida joylashgani sababli Rossiya uchun jozibador nuqta bo'lib xizmat qilgan. Maqolada 1714–1717-yillarda Rossiya tomonidan uyushtirilgan diplomatik va harbiy ekspeditsiyalar, ularning maqsadi hamda natijalari yoritiladi. Rossiya hukumatining Xiva xonligiga bo'lgan qiziqishi keyingi yillarda ham davom etgan va bu jarayon Rossiya-O'rta Osiyo munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu tadqiqot mavzu bo'yicha tarixiy jarayonlarni tushunishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Astraxan va Volgabo 'yi, Do'st Bahodir, O'zboy, A. B. Cherkasskiy, Guryev, senat, Mang'ishloq, Eshmixo 'ja, Volinskiy, Mirza Tavakkalov, Porsu, otin qum, Sherg'ozi Jonto 'ra o'g'li.

XVIII-asr Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyat keskin o'zgarishlarga boy bo'lib, Rossiya imperiyasi bu hududga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilgan davr edi. Shu davrda Xiva xonligi Markaziy Osiyoning muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, mustaqilligini saqlab qolish uchun turli diplomatik va harbiy choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Rossiya imperiyasining janub tomon kengayish siyosati Xiva bilan aloqalarni murakkablashtirdi va ikki davlat o'rtasida savdo, diplomatiya hamda harbiy to'qnashuvlar yuzaga keldi.

Rossiya, ayniqsa, Petr I davrida Markaziy Osiyoga qiziqish bildirgan bo'lib, bu hududni iqtisodiy va harbiy jihatdan o'z ta'sir doirasiga kiritishga harakat qilgan. Xiva xonligi esa o'z navbatida, tashqi kuchlarning aralashuviga qarshi tura oladigan darajada kuchli harbiy va siyosiy tizimga ega edi. Shunga qaramay, Rossiyaning savdo manfaatlari, asirlarni ozod qilish kabi masalalar Xiva bilan aloqalarni davom ettirish zaruratini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy va savdo manfaatlari; Xiva xonligi Hindiston va Eron bozorlariga olib boruvchi karvon yo'llari ustida joylashgani sababli Rossiya savdogarlari uchun ahamiyatlidir.

Astraxan va Volgabo‘yi savdogarlari O‘rta Osiyo bozorlariga chiqishni istar, bu esa hudud barqarorligini ta’minlash zaruratini tug‘dirardi.

Geosiyosiy va strategik ahamiyat; Rossiya O‘rta Osiyo hududida o‘z ta’sirini oshirishga harakat qilgan davrda Xiva xonligi muhim nuqta bo‘lib xizmat qilardi. Amudaryo va Kaspiy dengizi orqali savdo va harbiy yo‘llarni mustahkamlash imkoniyati Rossiya uchun jozibador edi.

1714–1717-yillardagi harakatlar; Rossiya hukumati Xiva bilan diplomatik va harbiy aloqalarni o‘rganish maqsadida turli ekspeditsiyalar uyushtirdi. Bu yurishlar savdo-sotiq, strategik hamkorlik va harbiy kuch imkoniyatlarini baholashga qaratilgan edi. Biroq bu tashabbuslar kutilgan natijalarni bermadi. Petr I davrida Rossiyaning Xiva xonligiga bo‘lgan e’tibori asosan iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlar bilan bog‘liq edi. Ushbu harakatlar keyingi asrlarda ham davom etgan Rossiya-O‘rta Osiyo munosabatlari asos soldi.

Xiva xonligining muhtasham tarixida Chor Rossiyasi bilan munosabtalar alohida o’ringa egadir. Markazlashgan davlatga aylanayotgan Rossiya asta-sekin mustahkamlanib, avval turkiy xalqlarning Qozon, Astraxan va Qrim xonliklarini o‘ziga bo‘ysundirgan, keyinchalik esa Sibir xonligiga yurish boshlagan edi. Ushbu harakatlarni diqqat bilan kuzatgan ingliz siyosatchilari Osiyodagi o‘z manfaatlarini himoya qilish mustahkamlash uchun turli choralar ko‘rishga harakat qilgan. Masalan, ular Eron va Hindiston bilan uzoq yillik aloqalarga ega bo‘lgan O‘rta Osiyo xonliklarining hukmron doiralarini o‘z ta’sir doirasiga tortishni maqsad qilgan. Shu sababli, savdogar va sayyoohlar ko‘rinishida josuslar yuborilgan.

1688-yilda esa Buxoro qo‘shinlari Xorazm hududini zabit etib, Subhonqulixon Xiva taxtiga o‘z noibi Jo‘jxonning o‘g‘li Shoh Niyozni o‘tqazgan. Buxoro mustaqillikka erishish yo‘llarini izlayotgan bir paytda uning vassal hukmdori rus podshosi Petr Iga Do‘sst Bahodir ismli elchisini yuborib, yordam so‘radi. 1700-yil 30-iyunda¹ rus podshosining ishonch yorlig‘ini qo‘lga kiritgan Shoh Niyoz o‘zini xon deb e’lon qildi. Ammo uning hukmronligi uzoq davom etmadni. Shoh Niyoz 1702-yilda hayotdan ko‘z yumdi.

Taxtga yangi hukmdor – Arab Muhammad kelganida, u o‘z nomiga yorliq olish uchun Do‘sst Bahodirni yana Petr I huzuriga yo‘lladi. Rus podshosi unga yorliq bilan birga, tuhfa sifatida 1000 ta oltin tanga, 40 ta qimmatbaho suvsar terisi va 3 dona miltiq hadya qildi.² 1713-yilda Astraxanga yetib kelgan mang‘ishloqlik turkman savdogari Xo‘ja Nafas O‘zboy hududida oltin

¹ Попов А. Сношение России с Хивой и Бухарою при Петре Великом. СПб., 1893. Турк. сб. Ташкент, т. 77, с. 388; Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трёхстолетие. Петроград, 1915, с. 42; Фуломов Х. Россия ва Хива элчилик миссиялари. "Tafakkur", Тошкент, 2006, 1-сон, 113-бет; Шарипов У. Русско-хивинские отношения при Петре Великом. В сб. Проблемы гуманитарных наук. Т. 3, М., Компания "Спутник", 2007, с. 63.

² Веселовский Н. И. Прием в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII–XVIII столетие. С. 25.

zaxiralari mavjudligi haqida ma'lumot berdi.³ 1714-yilda Xiva taxtiga Hojimuhammad Bahodirxon chiqqani haqidagi xabar Moskvaga yetkazildi. Elchi Ashurbek va Sibir gubernatori Matvey Gagarin O'rta Osiyoda oltin konlari borligi haqidagi taxminlarni tasdiqladilar.⁴ Petr I 1714-yil 29-may kuni Xiva xonligi hududiga kapitan A. B. Cherkasskiy boshchiligidan harbiy ekspeditsiya jo'natdi.⁵ Buyruq matnida quyidagicha so'zlar bor edi: "Daryoning (Amudaryo) oqimini sinchkovlik bilan o'rganish, agar imkon bo'lsa, uning suvlarini ilgari oqimga yo'naltirish, Orol dengizi tomon oqayotgan irmoqlarni to'sish zarur. Amudaryo orqali savdogarlarni Hindistonga kemalar yordamida yetkazish yo'llarini izlash kerak".⁶ Podsho topshirig'inining ustiga yana shunday ilova qildi: "Senat a'zolariga bu ishning shoshilinchligi haqida aniq ko'rsatma berish lozim".⁷

1714-yil 7-noyabrdan Astraxandan yo'lga chiqqan qo'shin Guryevga yetib keldi. Safar tarkibida 10 ofitser, 1744 nafar piyoda askar, 27 ta kemaga joylashtirilgan 100 dengizchi, 19 ta to'p va 33 nafar to'pchi bor edi.⁸ Biroq ob-havo yomonlashgani sababli 3 dekabrda qo'shin ortga qaytishga majbur bo'ldi. Shunga qaramay, Petr I olingan ma'lumotlardan qoniqish hosil qilib, tadqiqotlarni davom ettirish lozimligi haqida farmon berdi. 1715-yil 25-aprelda A. B. Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya Mang'ishloq yarim oroliga yetib bordi.

1716-yil 27-yanvarda podshoning topshirig'iga ko'ra, Kaspiyga yo'l olgan dengiz ofitseri Kojin A. B. Cherkasskiy to'plagan ma'lumotlarning aniqligini tekshirishga va dengiz qirg'oqlari xaritasini chizishga kirishdi. 1716-yil 31-martda Peterburgga chaqirilgan A. B. Cherkasskiy o'z missiyasining natijalari haqida podshoga hisobot berdi. Natijalardan mamnun bo'lgan Petr I unga gvardiya kapitani unvonini taqdim etdi va Senatdan ushbu ish uchun mablag'

³ Шепелев А. Очерки военных и дипломатических сношений России со Средней Азией. СПб., 1870, с. 28.

⁴ Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трёхстолетие. Петроград, 1915, с. 45–47.

⁵ Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. СПб., 1890, с. 66.

⁶ Из доклада правительственной экспедиции по исследованию направления Среднеазиатской железной дороги от 24 ноября 1878 года. ЦГВИА, ф. ВУА, оп. 1, д. 117, лл. 9–13 WWW: Kungrad.com.

⁷ ЦГВИА, ф. ВУА, оп. 1, д. 117, лл. 9–13 WWW: Kungrad.com.

⁸ Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi bir necha bosqichdan iborat ekanligiga e'tibor bermagan mualliflarning asarlarida rus armiyasi soni haqida bir-birini inkor qiluvchi ma'lumotlar uchraydi. Rus tarixchisi, professor N. I. Veselovskiyning asarida ko'rsatilgan 1716-yildagi yurish vaqtida qo'shinga 6655 askar ajratilgan edi. Biroq, mahalliy manbalar, xususan, muarrixlar Munis va Oghaiyning Firdavs ul-iqbol asarida ruslar soni 30 mingdan ortiq deb ko'rsatilgan (Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/1, 32-a varaqlar).

Petrning yo'reqnomasi bo'yicha Bekovich-Cherkasskiyga 4000 askardan iborat muntazam qo'shin va kemalar ajratishdan tashqari Orol kazaklaridan 1500, machiliklaridan 500 va otliq askarlardan 100 kishi ajratish haqida ko'rsatma berilgan (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi sharoitida, 31-bet). A. Maksheyev Astraxandan chiqqan knyaz Bekovichning 1900 kishilik askar va ikkita kema bilan Guryev qal'asi tomon yurish boshlaganini ko'rsatadi (Maksheyev A. I. Исторический обзор Туркестана..., 66-bet).

Yana bir manbaga ko'ra, ekspeditsiya tarkibida 2200 kishi bo'lgan (Из доклада полковника генерал-майора атамана Белинского военному министру об экономическом и торговом развитии Средней Азии. ЦГВИА, ф. 400, оп. 1, д. 38, л. 10. WWW: Kungrad.com).

ajratishni hamda unga 4 ming piyoda askar, 1500 o‘rol, 500 greben kazaklari va 100 nafar dragun otliq qo‘sishin ajratilishi belgilaydi.⁹ 1716-yil 20-sentabrda Astraxandan yo‘lga chiqqan Cherkasskiy 9-oktabrda Mang‘ishloq sohillariga yetib bordi. Xiva xoni Sherg‘oziga sovg‘asalomlar yuborgan Cherkasskiy polkovnik Xrushchevaga Avliyo Petr nomiga qal’a barpo etishni buyurdi. Krasnovodsk tomon harakatlangan ekspeditsiya Bextir Liman hududida shahzoda Aleksey nomi bilan ataluvchi istehkom asos soldi. O‘zboy daryosining qadimiy o‘zani yaqinida esa uchinchi qal’a qurilishi rejalashtirildi. Qish kelishi bilan Astraxanga qaytgan Cherkasskiy Xiva xoni Sherg‘ozining rus elchilarini asirga olgani va urushga tayyorgarlik ko‘rayotgani haqida ma’lumot oldi. Shu bois u Guryev orqali Xivaga yurish rejasini boshladi. Biroq ekspeditsiya ichida kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Poruchik Kojin ekspeditsiyadagi faoliyatini davom ettirishdan bosh tortdi. Buning natijasida Petr Cherkassiyga qo‘l ostidagi ishonchli odamlaridan birini, maxfiy topshiriq bilan Turkiya va Eron orqali Xitoy va Buxoroga yuborish hamda oltin qum bor yerlani aniqlashni buyuradi.

Usturyurting Emba daryosiga yetgan vaqtida olingan ushbu topshiriq bajarish mas’uliyati kazak arbobi Mirza Tavakkalov zimmasiga yuklanadi. O‘z navbatida, Tavakkalov Ozarbayjondagi Shemaxa orqali Isfaxonga, undan o‘tib, Astrabodga borgan vaqtida Safaqulixon ismli noib qo‘liga asirlikka tushib qoladi. Erondagi rus elchisi Volinskiy tomonidan ozod qilingan M. Tavakkalov Cherkasskiy ekspeditsiyasining fojiali taqdiri haqida eshitgach, Rossiyaga qaytib ketadi.

Ruslar yurish boshlagan vaqtida Xivada qozoq xoni Sultong‘ozi avlodidan bo‘lgan Sherg‘ozi Jonto‘ra o‘g‘li (1714–1726) hukmronlik qilardi. Muarrix Munisning guvohlik berishicha, u Buxoroda tu‘g‘ilgan va madrasada o‘qib, bilimlarini chuqur egallagandi.¹⁰ Ruslar yaqinlashayotganidan xabardor bo‘lgan xon 24 mingga yaqin askar to‘pladi.

1717-yilda 11 ta to‘p va 1877 askar bilan Xivaga qarab yurish boshlagan ruslarning Qayrag‘och daryosiga baliq ovlashga yuborilgan 60 ga yaqin kazaklari xivaxliklar tomonidan asir olinadi. Ruslarning kuchi ko‘pligidan xabardor bo‘lgan Xiva xoni Bekovich-Cherkasskiyga amaldor Eshmixo‘jani yuborib, uning ruxsatsiz ish qilinmaganligini, asir olingan kazaklarning qaytarib yuborishga tayyor ekanligini, agar bu xon bilan ham, elchi sifatida kelgan bo‘lsa, hamrohlarini birga, do‘stona ravishda kutib olishini ma’lum qiladi.¹¹ O‘z navbatida, Xivaga kelgan trasanlik dvoryan Kreytov ikkinchi marta xonga ruslarning bosqinchilik niyati yo‘qligini rasman bildiradi.

⁹ Shchipov U. Русско-хивинские отношения при Петре Великом. В сб. Проблемы гуманитарных наук. Т. 3, с. 64.

¹⁰ Munis va Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol", 97-bet.

¹¹ Cherkasskiyning Kaspiy dengizi va Xivaga yuborilishi haqida. Harbiy-ilmiy arxivining hujjatlari va materiallari. T. 1. Sankt-Peterburg, 1871. Turk. to‘plami. T. 33, Toshkent, 257-bet.

Sherg‘ozi xon bu gal ham rus elchilarini qaytarib yubormadi. Shu bilan orqaga chekinish niyati bo‘limgan rus qo‘shinlari Xiva tomon yurishni davom ettirdi. Vaziyyatni his qilgan xon ruslarga yon bosishga qaror qiladi. U sarbozlarini harakatlantirib, ruslarga qarshi tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Muzokaralar, dastlab, Porsung‘il arxasi bo‘yidagi Cherkasskiy qarorgohida o‘tkazilgach, xon ruslarni mehmon qilib taklif qildi. Ishonch yorlig‘ini topshirish uchun ofitserlari va 700 nafar soqchilari bilan kelgan Davlat Girey¹² ismi bilan atala boshlangan. Cherkasskiya sharqona takalluf va hurmat-e’tibor ko’rsatildi, sovg‘a-salomlar berildi. Xon o‘z yaqinlari bilan poytaxtga qaytar ekan, Bekovich-Cherkasskiy o‘z lageriga yo‘l oldi. Ularning orqasidan yetib kelgan rus qo‘shining ikkinchi guruhi Xivadan 108 chaqirim naridagi Porsu qal’asi yaqinida xonlik vakillari bilan uchrashgani keldi. Xon ruslarni oziq-ovqat va yegulik bilan ta’minalash bahonasida ularni poytaxtdan boshqa hududlarga tarqatish rejasini ilgari surdi. Xonning taklifiga ko‘ra, Cherkasskiy o‘z qo‘shinini besh qismga ajratdi va o‘zi bilan faqatgina 200 askarni qoldirdi.

Natijada, alohida joylarga ajratilgan rus qo‘shinlari Xiva askarlari tomonidan birma-bir yo‘q qilindi. Birinchilar qatorida 1717-yil 29-avgust kuni A. B. Cherkasskiy ham qatl etildi.¹³

Uning boshi tanasidan judo qilinib, Buxoro xoni Abulfayzga jo‘natildi, ammo u bu "sovg‘a"ni qabul qilmay, boshsiz jasadni Xivaga qaytarib yubordi.

Ekspeditsyaning butunlay yo‘q qilinishi haqidagi xabar Peterburgga ancha kech yetib bordi. 1717-yil 10-oktabrda Peterburgga qaytgan Petr I Mang‘ishloq va Krasnovodskdagi istehkomlarni mustahkamlashni buyurdi. Biroq, imperatorning ushbu farmoni juda kech bajarildi.

Harbiy kasalliklarning keng tarqalishi, qo‘shinlar orasida tarqalgan noxush xabarlar va turkmanlar hujumlari sababli, rus qo‘shinlari 1718-yil bahorida Astraxanga qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining fofiali yakuni Rossiya va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlarni ancha murakkablashtirdi. Xon bu keskinlikni yumshatish hamda savdo-sotiq aloqalarini tiklash maqsadida 1720-yilda Avaz Muhammad elchiligini Peterburgga jo‘natdi. Biroq, Peterburgda bu elchi unchalik iliq kutib olinmadidi.

¹² "Firdavs-ul-iqbol"da shunday deyiladi: "Davlat Girey va Andrey gubernator o‘ttiz ming o‘rus bilan Shayx Jalil tog‘ikim, oltun va kumush ma’danidur, aning orzusi, balki Xorazm fathining tamamnosи bilan Orol hududiga nuzul qildi. Xon qo‘ng‘iroq Qulmuhammad otaliq va nayman amir Avaz inoqli junudi ma’dud bila mudofaaga nomzad etdi." Davlat Girey bilan suhbat qurib, ziyofat bahonasida a’don millati bayzoni mehmonxonasi asfal as-sofiliga nozil qildilar" degan so‘zlarni o‘qish mumkin (Munis va Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol", 99-bet).

¹³ Безгин И. Г. "Князь Бековича-Черкасского экспедиция в Хиву". Sankt-Peterburg, 1841.
Голосов Д. "Поход в Хиву 1717 г. отряда под начальством лейб-гвардии Преображенского полка, капитана, князя Александра Бековича-Черкасского". "Военный сборник". Т. XXI. Sankt-Peterburg, 1861, 303–364-betlar.
"Дело 1714–1718 гг. об отправлении лейб-гвардии Преображенского полка капитана-поручика князя Александра Бековича-Черкасского на Каспийское море и в Хиву". "Документы и материалы Военно-ученого архива Главного штаба". Т. 1. Sankt-Peterburg, 1871, 197–506-betlar.

Веселовский Н. И. "Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве". Sankt-Peterburg, 1877.

Shon-shuhrat bilan qoplangan kumush pilipet (to'n) hadya etilganiga qaramay, elchi shubha ostida qoldi va Xivaning diplomatik harakatlari sinchiklab o'rganildi. Nihoyat, bu elchi 1721-yilda hibsga olinib, uzoq muddatli asirlikka mahkum qilindi¹⁴.

Xulosa; Petr I davridagi Rossiya va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarning murakkabligini ko'rsatadi. Rossianing bu hududga bo'lgan qiziqishi nafaqat iqtisodiy va savdo manfaatlari, balki strategik maqsadlar bilan ham bog'liq edi. Xiva xonligi esa o'z mustaqilligini saqlab qolish uchun turli diplomatik va harbiy choralar ko'rishga majbur bo'ldi.

1714–1717-yillarda Rossiya tomonidan Xiva xonligini o'rganish va o'z ta'sir doirasiga kiritish maqsadida amalga oshirilgan ekspeditsiyalar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Xiva xoni Sherg'ozi boschchiligidagi harbiy harakatlar rus qo'shinlarining mag'lubiyatiga olib keldi va bu voqeal Rossiyaning Markaziy Osiyodagi rejalar kechiktirilishiga sabab bo'ldi. Biroq, bu muvaffaqiyatsizlik Rossiyaning mintaqaga bo'lgan qiziqishini yo'qotmadi. Aksincha, keyingi yillarda Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyodagi siyosatini kuchaytirib, iqtisodiy va harbiy yo'nalishda faol harakat qildi. Natijada, Xiva va Rossiya munosabatlari uzoq yillar davomida murakkab va ziddiyatli bo'lib qolgan. Ushbu tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligi o'z mustaqilligini saqlash uchun qanchalik harakat qilmasin, kuchli tashqi bosim va geosiyosiy manfaatlар uning kelajagiga ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, Petr I davridagi voqealar nafaqat Rossiya va Xiva munosabatlarida, balki butun Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

REFERENCES

1. Попов А. Сношение России с Хивой и Бухарою при Петре Великом. СПб., 1893. Турк. сб. Ташкент, т. 77, с. 388; Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трёхстолетие. Петроград, 1915, с. 42; Гуломов Х. Россия ва Хива элчилик миссиялари. "Tafakkur", Тошкент, 2006, 1-сон, 113-бет; Шарипов У. Русско-хивинские отношения при Петре Великом. В сб. Проблемы гуманитарных наук. Т. 3, М., Компания "Спутник", 2007, с. 63.
2. Веселовский Н. И. Прием в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII–XVIII столетие. С. 25.
3. Шепелев А. Очерки военных и дипломатических сношений России со Средней Азией. СПб., 1870, с. 28.

¹⁴ Гуломов Х. "Россия ва Хива элчилик миссиялари". "Tafakkur", Toshkent, 2006, 1-son, 113-bet.

4. Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трёхстолетие. Петроград, 1915, с. 45–47.
5. Макшеев А. И. Исторический обзор Туркистана и наступательного движения в него русских. СПб., 1890, с. 66.
6. Гуломов Х. "Россия ва Хива элчилик миссиялари". "Tafakkur", Toshkent, 2006, 1-сон, 113-bet.
7. Cherkasskiyning Kaspiy dengizi va Xivaga yuborilishi haqida. Harbiy-ilmiy arxivining hujjatlari va materiallari. Т. 1. Sankt-Peterburg, 1871. Turk. to‘plami. Т. 33, Toshkent, 257-bet.
8. Munis va Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol", 97-bet.
9. Shchipov U. Русско-хивинские отношения при Петре Великом. В сб. Проблемы гуманитарных наук. Т. 3, с. 64.